

“Matematika – bobomdan meros”

(Matematika tadbir senariysi . 4-sinf uchun)

Zal bayramona bezatilgan , fanga oid shiorlar, matematik rasmlar, bilim haqidagi maqollar bezatiladi.

1-boshlovchi:

Odoblining ilk so`zidir

Assalom-u alaykum

Odoblining qosh ko`zidir

Assalom-u alaykum

2-boshlovchi:

Barchangizga birdek yoqar

O`zbekimning kalomi

Barchangizga deymiz doim

Asallom-u alaykum

1-boshlovchi:

Assalomu alaykum hurmatli ustozlar va o`quvchilar bugungi matematika fan oyligi uchun tayyorlangan matematika kechasiga xush kelibsiz.

2-boshlovchi:

Bu kechamizda 4- “A”-sinf o`quvchilari ishtirok etadilar.

1-boshlovchi:

Ana endi matematika kechamizni ochiq deb e`lon qilsh uchun so`zni beraman .

1-boshlovchi:

Har misolni yechmoqqa

Sen doimo tirishgin

Eplolmasang ilk marta

Yana takror kirishgin

2-boshlovchi
Yecholmayman demagin
Qiyin bo`lsa masala
Yalqovlarga bo`lmaydi
Ishlagali xafsala

Navbat matematika haqidagi she'rlarga :

Matematik she'rlar

1- o'quvchi

Matematika

Mening suzib yurganim

Matematika oroli .

O'sha katta orolning

Ustozimdir qiroli .

Ko'payar goh kichrayar

Katakdaqi raqamlar

Masala va misollar

2-o'quvchi .

To'rt amal

Dars o'tilar o'rmonda

Qatnashmagan armonda

Chinor osti pakkadir

Muallimi Hakkadir

Arifmetik to'rt amal

O'rgatadi galma –gal

3-o'quvchi:

Yong'oqqa o'ch olmaxon

Hadeb boshin qashiydi

Uchdan to'qqiz olinmagach

Uyga nima tashiydi ?

Ko'rsatmaydi Qarqunoq

Shpargalka qorasin ,
Uch ortiga nol qo'yib,
Topdi oxir chorasin.

4-o'quvchi.

Doskadagi yozuvni ,
Dumida artib,
O'rganmoqchi bu amalni ,
Mushuk betartib .

Qo'shib borsa sanoq son ,
Boradi artib .

To'g'ri topsa unda sichqon,
O'ziga tortiq

5-o'quvchi.

Quyvon hisob bobida
Eng oldingi marrada
Vazifani zumda ishlar
Oddiy usul karrada.

Tulki otay quyondan .

So'rab qoldi qo'qqisdan,

Uchta joyda uch sabzi ,

Necha bo'ladi aytgin .

O'ttiz olti karamga

Olti qop to'ladi .

6-o'quvch:

Bir,ikki bu hisob

Raqamlarni o'ylab top ,

Hisob darsi –aql darsi

Savollarga javob top

7-O'quvchi:

Qizilishton nazmida

Bo'lish og'ir ko'rinar

Ammo sakkiz ikkiga
Juda oson bo'linar
Tumshug'ida hisoblab
Ter to'kar anch-muncha
Noldan nolni ayirsa ,
Qoladi teshik kulcha
Beshni ikkiga bo'lish mumkinmas,
Sizda ayon tushuncha,
Bular uyda vazifa
Dars tugadi buguncha

1-boshlovchi:

Matematik maqollar.

Ikki karra ikkini

Tezroq bilgin bilarjon

Undan keyin yanada

G`ayrat qilgin o`rtoqjon

1-boshlovchi: Bunday buyuk fanlarni kim yaratganini o'ylab ko'rganmisiz ?

2-boshlovchi: Ha ,albatta o'rtoqjon,Bu fan bizga buyuk bobolardan meros qolgan .

Kelin ular kimligi bilan tanishib olamiz .

Matematikadan qiziqarli sahifa .

“Bilimongni sina “o'yini

Maqsad :O'quvchilarni matematik savodxonlini oshirish. Bu o'yin quyidagicha olib boriladi:

1) 2 ta o'nlik 5 ta birlik ,1 ta o'nlik 3 ta birlikni qo'shing.

25+13

2)4 ta o'nlik 8 ta birlikdan ,2 ta o'nlik 3 ta birlikni airing.

48-23

“ tez hisobla “o'yini

Maqsad :o'quvchilarni tez hisoblashga o'rgatish . Bu o'yinda o'quvchilardan tez hisoblash talab qilinadi . Masalan:

1) 5 sonni 5 marta orttir va 5ta kamaytir .

$$5*5-5$$

2) 6 sonini 3 marta orttir, 2 ta kamaytir .

$$6*3-2$$

1-boshlovchi:Endi navbat qiziqarli she'riy masalalarga:

Oppoq quyon o'ynardi ,

Kelib qoldi qorasi .

Qo'shilganda bolasi

Nechta bo'ldi hammasi (3ta)

Daraxtda uch olmaxon

Yong'oq chaqar izma –iz .

Uch olmaxon uchtdan

Yedi chaqib nechtasin?

$$(3*3=9)$$

Malika ,Muxtor ,Omon

O'ynashardi qorbo'ron

Keldi shu payt uch o'rtoq

Sanab bilgin sen tezroq

$$(3+3=6)$$

Gulnozaxon gilzordan

Gullar uzdi guldonga

Gunafsha uzdi beshta ,

Gilbeordan o'n beshta

Gulnora ,Gulbahorxon ,

Gullarning soni nechta?(20 ta)

1-boshlovchi :Bular juda jukkolar ,

Ham bilimdon donolar ,

2-boshlovchi:Keling ularni yana savol bilan sinasak :

Tezkor savollarga tezkor javoblar .

1. Qaysi son 12dan uchta ortiq ,18dan uchta kam ?(15)
2. Qaysi son 10dan 5ta ortiq ,20dan 5 ta kam ?(15)
3. 16ni hosil qilish uchun qanday ikkita bir xil qo'shish kerak ?(8)
4. Qanday ikkita bir xil sonning yig'indisi 20 ga teng ?(10)
5. Eng kichik ikki xonali sondan ,eng katta bir xonali sonni ayirsak, ayirmada necha hosil bo'ladi ?(10-9=1)
6. Bola bir son o'yladi .Undan 8ni ayirdi .Nol hosil bo'ldi .U qanday o'yladi ?(8)

Endi navbat matematik maqollarga

- Sanamay sakkiz dema.
- Yetti o'lchab bir kes.
- Ikki o'n besh bir o'ttiz
- Bilagi zo'r birni yiqitar, bilimi zur mingni.
- Bir tup tok eksang bir tup tol ek.
- Bir kun tuz yegan joyingga qirq kun salom ber.
- Ko'p og'iz bir bo'lsa, bir og'iz yengilar.
- Bir yigitga yetmish hunar oz.
- Bir yil tut ekan kishi yuz yil gavxar teradi.

1-boshlovchi:

2-boshlovchi:

Topishmoqlar.

-Ikki ona har birida besh bola

Hammasining oti bir bo'lar nima?

-Yo'limni yoritar ikki chiroqcha

Chiroqcha ustida pilik qalamcha bular nima?

-Kunlar sonini ko'paytiradi, o'zi kamayadi.

-Yetti oga-ini baravardir boshlari, boshqachadir otlari.

1-boshlovchi:Tadbir sizga maqul bo'ldimi ?

2-boshlovchi: Maqul bo'lgan bo'lsa xursandmiz .

1-boshlovchi:Bugungi tadbiringa tashrif buyirganingiz uchun rahmat

2-boshlovchi: Xayr !Sag'-salomat bo'ling !